IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 02 May 2026

IQTISODIY O‘SISH JARAYONLARIDA INVESTITSIYALARNING TUTGAN ROLI HAMDA AHAMIYATI

Doniyev Shahob O‘tkir o‘g‘li
Qarshi Davlat Universiteti, Iqtisodiyot fakulteti,
Iqtisodiyot yo‘nalishi 2-kurs talabasi
E-mail: shahobdoniyev@gmail.com
ORCID: 0009-0007-8616-8144

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20496764

Annotatsiya: Mazkur maqolamizda iqtisodiy o‘sish jarayonlarida investitsiyalarning tutgan o‘rni, ularning makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi roli hamda milliy iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini yanada oshirishdagi ahamiyati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Olib brogan tadqiqotlarimiz natijalari esa investitsiya siyosatini takomillashtirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy strategiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiy o‘sish, investitsiyalar, yalpi ichki mahsulot, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit, makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik, investitsiya siyosati.

Abstract. In this article, the role of investments in the processes of economic growth, their role in ensuring macroeconomic stability, and their significance in further increasing the competitiveness of our national economy are analyzed from a scientific-theoretical and practical point of view. The results of our research have scientific and practical significance for improving investment policy and developing long-term economic strategies.

Keywords. Economic growth, investments, gross domestic product, foreign direct investment, investment climate, macroeconomic stability, economic efficiency, investment policy.

Аннотация. В данной статье научно-теоретически и практически анализируется роль инвестиций в процессах экономического роста, их роль в обеспечении макроэкономической стабильности и их значение в дальнейшем повышении конкурентоспособности нашей национальной экономики. Результаты наших исследований имеют научное и практическое значение для совершенствования инвестиционной политики и разработки долгосрочных экономических стратегий.

Ключевые слова: Экономический рост, инвестиции, валовой внутренний продукт, прямые иностранные инвестиции, инвестиционный климат, макроэкономическая стабильность, экономическая эффективность, инвестиционная политика.

Kirish. Hozirgi kunda xalqaro iqtisodiyotining jadal sur’atlarda globallashuvi va integratsiyalashuvi sharoitida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash har bir davlatning oldida turgan ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy o‘sish natijasida esa mamlakat aholisining farovonligini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlash kabi muhim iqtisodiy jarayonlar amalga oshadi. Bunday sharoitda investitsiyalar iqtisodiy rivojlantirishni asosiy harakatga keltiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘lib, kapital jamg‘arish, texnologik rivojlanish va

innovatsion faoliyatni yanada rag‘batlantirish orqali iqtisodiyotni ham sifat ham miqdor jihatidan o‘sishini ta’minlaydi.

Iqtisodiyot nazariyasida investitsiyalarning o‘sish jarayonlariga ta’siri turli ilmiy maktablar tomonidan keng o‘rganilgan. Jumladan, neoklassik o‘sish modeli investitsiyalarni kapital zahirasini oshiruvchi muhim omil sifatida baholasa, endogen o‘sish nazariyalari ularni texnologik taraqqiyot va inson kapitali rivoji bilan uzviy bog‘liq holda talqin etadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda esa investitsiyalarning samaradorligi nafaqat ularning hajmiga, balki investitsion muhitning sifati, institutsional omillar, moliyaviy infratuzilma rivoji va davlatning iqtisodiy siyosatiga ham bevosita bog‘liq hisoblanadi. Mazkur tadqiqotimizning dolzarbligi shundaki, bugungi kundagi iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashda investitsiyalarni samarali jalb etish va ulardan oqilona foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun investitsiyalar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish hamda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda investitsiyalar hamda iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borilmoqda. Albatta iqtisodiy o‘sish bevosita investitsiyalar bilan bog‘liqligi ham kundek ravshan holat hisoblanadi. O‘z o‘rnida faol investitsiyalarni jalb qilish hamda ularni maqsadli yo‘naltirilishi ham ustuvorlik kasb etadi. Ammo hech bir islohot o‘z-o‘zidan amalga oshmaganligi kabi, investitsiyalarni jalb qilish yoki qulay hamda jozibador investitsion muhitni yaratishni ham hech bir huquqiy asoslarsiz tasavvur qilish qiyin albatta. Xuddi shu maqsadda, hurmatli Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonlaridan 19-sentabr 2025-yil sanasida **“O‘zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi **PQ-289-sonli Qaror**[1]larining qabul qilinishi ham soha rivoji uchun eng muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Ushbu qaror ijrosi asosida ko‘plab vazifalar belgilab olindi hamda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xuddi shu mazmundagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinig 2025-yil 18-dekabrdagi **“Kapital bozorida investitsiya muhitini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”**gi **PF-254-sonli Farmon**[2] larining imzolanishi ham faol investitsion muhitni yaratish hamda ushbu islohotlar orqali iqtisodiyotimizni yanada barqaror rivojlantirish borasidagi eng muhim huquqiy asoslardan biri bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqiqot metodlari. Biz yoritayotgan mavzuimizni tadqiq qilish jarayonida tizimli yondashuv, tadqiqotning mantiqiy va taqqoslash usullari, kompleks yondashuv, induksion va deduksion usullar, SWOT tahlili, ko‘p variantli prognoz, kuzatishlar hamda statistik tahlil, sifat hamda miqdor tahlili va shu kabi ko‘plab tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Ushbu usullar orqali yuqorida tilga olingan soha har tomonlama tadqiq qilinib, yakuniy xulosalar berilgan.

O‘tkazilgan tahlillar va erishilgan natijalar. Mazkur tadqiqotlarimiz davomida mamlakatimizning iqtisodiy o‘sishi jarayonida investitsiyalarning tutgan o‘rni hamda ularning milliy iqtisodiyotimiz rivojiga ta’siri ham ilmiy ham amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot o‘tkazish jarayonida iqtisodiyotimizda investitsion faollikning yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘sishi, sanoat ishlab chiqarishi, bandlik darajasi va eksport salohiyatiga ta’siri statistik ma’lumotlar asosida hamda qiyosiy tahlil usullari asosida o‘rganib chiqildi. Milliy darajada olib borilgan izlanishlarimiz natijalariga ko‘ra investitsiyalarning YaIM o‘sishiga bevosita ta’siri mavjudligiga statistik ko‘rsatkichlar orqali baho berildi. Masalan, rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy faollik darajasini oshirib, infratuzilma va ishlab chiqarishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu holat O‘zbekiston


[1] https://lex.uz/uz/docs/-7736676 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.09.2025 yil sanasidagi PQ-289-sonli Qarori

[2] https://lex.uz/uz/docs/-7932083 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.12.2025 yil sanasidagi PF-254-sonli Farmoni

iqtisodiyotida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, so‘nggi yillarda investitsiya siyosatini faollashtirish natijasida yuqori o‘sish sur’atlariga erishish holatlari bo‘yicha ilmiy-amaliy misollar mavjud.

Tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko‘rsatdiki, iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlash uchun investitsiyalarni hududlar va tarmoqlar bo‘yicha muvozanatli taqsimlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, innovatsion va yuqori texnologik loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirish uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

O‘tkazilgan tahlillar asosida investitsiyalarning iqtisodiy tarmoqlar kesimi bo‘yicha samaradorligiga ham baho berildi. Olingan natijalarga ko‘ra, sanoat, energetika, transport-logistika va raqamli iqtisodiyot sohalariga yo‘naltirilgan investitsiyalar yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Ushbu tarmoqlarga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmining oshishi nafaqat ichki ishlab chiqarishni kengaytirishga, balki eksport hajmi hamda xalqaro raqobatbardoshlikning ortishiga ham xizmat qilib kelmoqda. Shuningdek, tadqiqotlarimiz davomida investitsion muhitning barqarorligi va qulayligi investorlar faolligiga bevosita ta’sir qilishini ham asoslab berishga harakat qildik. Soliq imtiyozlarining berilishi, huquqiy tomondan kafolatlar, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi hamda davlat tomonidan olib borilayotgan investitsion siyosat investitsiya oqimlarini rag‘batlantiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ldi. Bunda investitsion jozibadorlikning oshishi yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini ko‘paytirish va kambag‘allik darajasini qisqartirishga xizmat qilishi qayd etildi. Shu bilan birgalikda, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda u orqali mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada barqaror rivojlantirish asosida quyidagi eng asosiy ustunliklarga erishishni ham maqsad qilib qo‘yganmiz:



1-rasm. Iqtisodiy o‘sishga investitsiyalarning ta’siri[3]

Yuqoridagi rasmdan ham ko‘rishimiz mumkinki, investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biri bo‘lib, ular ishlab chiqarish hajmini kengaytirish orqali yalpi ichki mahsulotning o‘sishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, investitsion loyihalar yangi korxonalar va infratuzilma obyektlarini barpo etish orqali yangi ish o‘rinlari yaratilishiga hamda aholi bandligining oshishiga sabab bo‘ladi. Investitsiyalar yordamida zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etilib, mehnat unumdorligi hamda mahsulot sifati sezilarli darajada ortadi. Natijada milliy iqtisodiyotning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi kuchayib, eksport salohiyati va iqtisodiy barqarorlik yanada mustahkamlanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning eng muhim omillaridan biri bo‘lib, ular mamlakatimizda ishlab chiqarish salohiyatini

[3] Muallif ishlanmasi

oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalarimiz shuni ko‘rsatdiki, investitsion faollikning ortishi bevosita yalpi ichki mahsulot hajmining ko‘payishiga, sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanishiga hamda milliy iqtisodiyotimizning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, investitsion muhitning qulayligi iqtisodiyotga kapital oqimini rag‘batlantiruvchi asosiy omillardan biri ekanligini ham aniqladik. Barqaror huquqiy baza, soliq imtiyozlari, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va infratuzilmaning rivojlanganligi investorlar ishonchini oshiradi hamda iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi. Shu sababli investitsiya siyosatini izchil takomillashtirish mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatli va barqaror rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.12.2025 yil sanasidagi PF-254-sonli Farmoni. Manba: https://lex.uz/uz/docs/-7932083
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.09.2025 yil sanasidagi PQ-289-sonli Qarori. Manba: https://lex.uz/uz/docs/-7736676
3. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. Manba: https://lex.uz/uz/
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Stattistika Qo‘mitasi ma’lumotlari. Manba: https://stat.uz/uz/
5. Aqilov A., Rahimov N. Xorijiy investitsiyalar va milliy iqtisodiyot rivoji. - Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019.
6. OECD. International Direct Investment Statistics. - Paris, 2022.
7. Ayupov, R.X., Baltabaeva, G.R. (2018). Raqamli valyutalar bozori: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. –T: Fan va texnologiya. 172 b.
8. https://www.oecd.org/investment/statistics.htm